



O'ZBEKISTONDA YOSHLARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

*Andijon davlat pedagogika
instituti mustaqil tadqiqotchisi
Sulaymonov Maxmudbek Shuxratbekovich
@maxmudjon.sulaymonov@gmail.com*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15256123v>

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada yoshlarda fuqarolik pozitsiyasining shakllantirish masalalari va fuqarolik pazitsiyasini shakllantirishga oid va milliy o'ziga xoslikdan kelib chiqib amalga oshirish mumkin bo'lgan qator masalalar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, pozitsiya, fuqaro, davlat, vatan, jamiyat faollik.

Dunyo davlatlarining tashkil topishi va tarixi turlicha. Bu esa o'z-o'zidan fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki, mavjud masalalarga yondashuvni turlicha bo'lishiga sabab bo'lgan. Masalan, diniy aqidalar hukmronlik qiladigan davlatlarda fuqarolarning diniy tuyg'ulari orqali fuqarolik pozitsiyasi shakllantirilsa, monarxiya shaklidagi davlat boshqaruvida monarx va uning oilasi, ko'p yillik tarixi va shonli an'analari bu borada muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda yoshlarni fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etib, dunyo tajribasi va milliy o'ziga xoslikdan kelib chiqib amalga oshirish mumkin bo'lgan qator masalalar mavjud. Jamiyatdagi ma'naviy muhit masalalari bilan shug'ullangan atoqli olim M.Qahhorova quyidagicha yozadi: "Fikrimizcha, ma'naviy-axloqiy muhitni rivojlantirib borishning asosiy mexanizmlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

1. Tarbiyalash.
2. Korreksiyalash.
3. Tushuntirish.
4. Ko'niktirish." [1]

Bu kabi yondashuvlar asosida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish mumkin. Birinchi bosqich oiladan boshlansa, maktabgacha ta'limda va maktabda davom etishi, keyinchalik esa jamiyatning turli institutlari yordamida tegishli ishlar amalga oshirilishi zarur bo'ladi.

Fuqaroviy faollik masalalari bilan shug'ullangan olimning fikricha: "Fuqaroviy faollikning beshta darajasini ajratib ko'rsatamiz, shartli ravishda ularni geografik qamrovi jihatidan turlarga ajratamiz:

- mahalla darajasi;
- shahar va tuman darajasi;
- shahar va viloyat darajasi." [2]

Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, avvalambor, oiladan boshlanishi kerak va bu borada milliy miqyosda ma'lum bir tajriba yoki amaliyot mavjud emas. Oilada vatanparvarlik, yurt taqdiriga daxldorlik hissi kabi masalalar kam muhokama qilinmaydigan masalalar sirasiga kiradi. Professor Sh.Madayeva shunday mushohada qiladi: "Ozodlik, farovonlik, hamjihatlik kabi demokratik ideallar o'zbeklarda bir-birini qo'llab-quvvatlash, o'zaro hurmat va hamjihatlik asosida oila, qon-qarindosh, qo'ni-qo'shni, mahalla, yurt, vatan farovonligiga erishishda deb tushuniladi. Islom dinining sinkretik xarakteri bilan shakllangan irratsional xarakter esa, iymon, e'tiqod, savob tuyg'ularining kuchli shakllanishiga sabab bo'lgan. Kollektivizm kuchli bo'lgan an'anaviy o'zbekona sotsiumning minglab yillik tajribasi "Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas", "Qo'shning tinch – sen tinch", "Oltin olma, duo ol", "Kengashli ish tarqamas", "Qush bo'l, it bo'l, ko'p bo'l" kabi maqollarda o'z ifodasini topgan." [3] Shu sababli ham oilalar darajasida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasini kiritish zarur bo'ladi. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va san'at asarlari – kino va videoroliklar orqali oilalarda turli ijtimoiy muammolarga doir muhokamalar, uni kim tashkil qilishi kerak, kim xulosa



berishi kerak, qanday tarzda suhbat tashkil qilishi kerak ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir. 2024-yilda jamoatchilik muhokamasi markazida turgan elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun ijtimoiy normani joriy qilinishi bilan bog'liq masalani ota-ona farzandlariga qanday tushuntirishi kerakligi, sodda va tushunarli tilda bayon qilinadi, kerak bo'lsa ko'rsatib berilsa, farzandlar ham mana shu muhim masalani mohiyatiga yetgan bo'ladi. Chunki kommunal sohadagi islohotlarning borishi sohaga bozor iqtisodiyoti qonunlarini joriy qilishni taqozo etmoqda. Bundan 20–30 yil avval amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlar endigina amalga oshirilmogda va buning muvaffaqiyati iqtisodiy barqarorlikni asosiy omili bo'lib qolmogda. Uzoq yillar davomida shakllangan energetizimni subsidiyalash amaliyoti natijasida davlat byudjetiga juda katta zarar keltirmogda. Bu boradagi fuqarolik pozitsiyasini namoyon bo'lishi juda muhim ahamiyatga ega bo'lmogda.

Yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish siyosiy madaniyati bilan uzviy ravishda kechadi. Bu haqida siyosatshunos A.Jalilov shunday yozadi: “Milliy o'zlikni anglash ijtimoiy rivojlanishning obyektiv sharoitlarida shakllanadi va rivojlanadi. Vatanga sadoqat milliy o'zlikni anglashning shakllanishi va rivojlanishi uchun muayyan zamin yaratadi, u siyosiy madaniyatda o'z ifodasini topadi. Hududiy birlik millat milliy o'zligining shakllanishi va rivojlanishi omili sifatida, yana shu bilan ham muhimki, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning markazlashuvi aynan muayyan hududda yuz beradi.”[4]

Umuman olganda, oilalarda farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalar bo'yicha tizimli ishlar tashkil qilish va uning tarkibiga fuqarolik pozitsiyasini ham kiritish zarur bo'ladi.

Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi muhim bosqichlardan biri ta'lim muassasalaridir va u ancha keng qamrovli ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Birinchidan, maktab darsliklariga o'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini dastlabki elementlarini shakllantiradigan mavzularni qo'shish kerak bo'ladi. Misol uchun, atrof-muhit muhofazasi, kommunal xizmatlardan foydalanish, davlat va jamiyat qurilishi, siyosiy jarayonlarni harakatga kelish omillari va fuqarolarning bu boradagi xatti-harakatlarini batafsil tushuntirib beradigan o'quv mashg'ulotlari zarur bo'ladi. Bu o'rinda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan fan va ularning mavzulariga alohida to'xtalib o'tamiz.

So'nggi yillarda O'rta maxsus va oliy ta'limda siyosatshunoslik fani o'quv rejadan chiqarib yuborilishi natijasida jamiyatning eng ilg'or va yetakchi qatlami bo'lgan ziyolilarning siyosiy hayot haqidagi tasavvurlari amaliy masalalar bilan cheklanib qolishiga to'g'ri keldi. Agar demokratik davlat sifatida fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish va shu orqali yoshlarning, shu bilan birga keng jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashini siyosiy resursga aylantirishni istasak, albatta, siyosatshunoslik bilan bog'liq fanlarni o'quv rejalarga kiritish zarur bo'ladi. Hozirgi kredit-model tizimi sharoitida esa talabalarga mazkur fanlarni tanlash imkoniyatini berishni o'z yiqoq yetarli deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. М.Қаҳҳарова. Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит: муаммо ва ечимлар. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент. – Б. 229-230
2. Шодиев Н. Сиёсий модернизация жараёнида фуқаровий фаолликни ошириш механизмларини такомиллаштириш. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2020. - Б. 113.
3. Ш.Мадаева. Ўзбек менталиетида демократик тафаккурни шаклланиш хусусиятлари. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2009. – Б. 221.
4. Жалилов А. Ўзбекистонда ёшлар сиёсий маданиятини ривожланиш жараёнлари. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2020. - Б. 119.